



## MEROSNI QABUL QILISH VA UNDA VOZ KECHISH TARTIBINING HUQUQIY TAHLILI: MILLIY VA QIYOSIY- HUQUQIY JIHALAR

Ergasheva Barchinoy

Mehnat va ijtimoiy munosabatlar akademiyasi talabasi

Email: @Barchinoysuyunova20@gmail.com

https://doi.org/10.5281/zenodo.20594057

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 04-iyun 2026 yil

Ma'qullandi: 06-iyun 2026 yil

Nashr qilindi: 08-iyun 2026 yil

### KEYWORDS

meros huquqi, merosni qabul qilish, merosdan voz kechish, Hukman Red, universal huquqiy vorislik, raqamli meros, notarial amaliyot, kreditorlar huquqlari.

### ABSTRACT

*Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasi fuqarolik huquqida merosni qabul qilish va undan voz kechish institutlarining tizimli nazariy va amaliy tahliliga bag'ishlangan. Tadqiqotning dolzarbligi sudlarda meros munosabatlariga oid nizolarning ortib borayotgani hamda raqamlashtirish va integratsiya sharoitida protsessual tartiblarni modernizatsiya qilish zarurati bilan belgilanadi. Ishda milliy qonunchilikdagi voz kechishning qaytarilmasligi prinsipi, merosni amalda qabul qilish va kreditorlar huquqlarini himoya qilish bilan bog'liq bo'shliqlar aniqlangan. AQSh (malakali voz kechish doktrinasi, "foydani qabul qilish" konsepsiyasi), Turkiya (to'lovga qobiliyatsizlik holatida avtomatik voz kechish — "Hukman Red"), Germaniya ("ipso iure" qabul qilish, voz kechishni nizolashish) va boshqa MDH davlatlarining ilg'or tajribasini qiyosiy-huquqiy tahlil qilish asosida O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksini isloh qilish bo'yicha aniq takliflar ishlab chiqilgan. Xususan, merosni inventar ro'yxati asosida qabul qilishni joriy etish, protsessual muddatlarni tabaqalashtirish, "raqamli meros"ni tartibga solish va huquqiy oqibatlarining majburiy notarial bayonnomasini joriy etish taklif qilingan bo'lib, bu merosxo'rlar va kreditorlar manfaatlarining muvozanatini ta'minlashga xizmat qiladi.*

O'zbekiston Respublikasida bozor iqtisodiyotining shakllanishi va xususiy mulk institutining izchil mustahkamlanishi fuqarolik qonunchiligini tubdan isloh qilishni taqozo etdi. Mulkiy huquqlarning barqarorligini ta'minlovchi fundamental asoslardan biri jismoniy shaxs vafotidan keyin uning huquq va majburiyatlari boshqa shaxslarga o'tishini tartibga soluvchi meros huquqidir. Vorislik huquqini amalga oshirish esa merosxo'rlarning o'z irodasini namoyon etishi, ya'ni merosni qabul qilishi yoki undan voz kechishi bilan uzviy bog'liqdir.

Garchi ushbu sohada shakllangan huquqiy tartibga solish tizimi mavjud bo'lsa-da, sud amaliyoti ushbu sohadagi nizolarning barqaror ravishda o'sib borayotganini ko'rsatmoqda:

merosga oid nizolar O'zbekiston Respublikasi sudlari tomonidan ko'rib chiqilayotgan jami fuqarolik ishlarining taxminan 15–18 foizini tashkil etadi. Ushbu tendensiya notarial jarayonni, muddatlarni hisoblashni tartibga soluvchi protsessual normalarda yashirin nuqsonlar mavjudligidan hamda fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining suiiste'molliklardan yetarli darajada himoya qilinmaganligidan dalolat berani.

Raqamlashtirish jarayonlari, aholining transchegaraviy migratsiyasi va fuqarolar mulkining tarkibi murakkablashib, unga virtual aktivlarning ham qo'shilayotgani ushbu mavzuning dolzarbligini yanada oshirmoqda. Mazkur maqolaning maqsadi merosni qabul qilish va undan voz kechishning milliy huquqiy rejimini har tomonlama tanqidiy tahlil qilish, uni ilg'or xalqaro modellar bilan qiyoslash hamda O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflarni ishlab chiqishdan iborat.

Fuqarolik huquqi doktrinasida merosni qabul qilish meros mol-mulkini qo'lga kiritishga qaratilgan bir tomonlama bitim sifatida talqin etiladi, u mutlaq, shartsiz va universal xarakterga ega. Ushbu institutning tarixiy ildizlari Rim huquqiga (hereditas) borib taqaladi, bu yerda universal huquqiy vorislik (successio universalis) konsepsiyasi shakllangan. Unga ko'ra, merosxo'rga shunchaki tarqoq huquqlar majmui emas, balki meros qoldiruvchining barcha aktiv va passiv elementlaridan iborat yaxlit mulkiy holati o'tadi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1145-moddasiga muvofiq, merosxo'r o'ziga tegishi lozim bo'lgan merosni yoki uning bir qismini (ulushini) olish huquqiga, agar u keyinchalik merosdan voz kechmasa, vorislik huquqidan mahrum etilmasa va uni merosxo'r etib tayinlash to'g'risidagi vasiyat farmoyishi haqiqiy emas deb topilishi natijasida meros olish huquqini yo'qotmasa, meros ochilgan vaqtdan e'tiboran ega bo'ladi. Milliy qonun chiqaruvchi meros munosabatlarini ikki asos — qonun va vasiyat bo'yicha tizimlashtiradi. Qonun bo'yicha merosxo'rlikda etti navbatdan iborat qat'iy ketma-ketlik belgilangan (Fuqarolik kodeksining 1134–1139-moddalari). Birinchi navbatni an'anaviy ravishda meros qoldiruvchining bolalari, eri (xotini) va ota-onasi tashkil etadi.

O'zbekistonda merosni qabul qilishning huquqiy mexanizmi uchta asosiy usulni nazarda tutadi:

**Rasmiy (notarial) usul:** meros ochilgan joydagi notariusga merosni qabul qilish to'g'risida yoki merosga bo'lgan huquq to'g'risida guvohnoma berish haqida yozma ariza topshiriladi. Ushbu usul eng xavfsiz va yuridik jihatdan aniq hisoblanadi.

**Amalda (haqiqiy) qabul qilish usuli:** merosxo'r meros mol-mulkka amalda egalik qilish yoki uni boshqarishga kirishganini ko'rsatuvchi harakatlarni amalga oshiradi (mulkni asrash choralari ko'rish, meros qoldiruvchining qarzlarini to'lash, mulkni saqlash xarajatlarini qoplash). Ushbu usul ma'lum protsessual xavflarni keltirib chiqaradi, chunki bunday harakatlarning amalga oshirilganligini isbotlash ko'pincha sud tartibida talab qilinadi.

**Sud usuli:** meros huquqiga oid nizolar kelib chiqqanda sudga murojaat qiladi.

Fuqarolik kodeksining 1146-moddasiga binoan, merosga bo'lgan huquq to'g'risidagi guvohnoma meros ochilgan kundan e'tiboran olti oy o'tganidan keyin beriladi. Ushbu olti oylik muddat barcha merosxo'rlarni aniqlash va kreditorlar tomonidan da'volar taqdim etilishi uchun xizmat qiladi. Biroq, ushbu muddatning qat'iy belgilanganligi obektiv sabablarga ko'ra notariusga o'z vaqtida murojaat qila olmagan shaxslarning huquqlarini cheklab qo'yadi va protsessual muddatlarni tabaqalashtirish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Merosdan voz kechish mustaqil bir tomonlama bitim bo'lib, fuqarolik huquqidagi dispozitivlik prinsipining namoyon bo'lishidir: hech kim o'z xohishiga qarshi mulk yoki majburiyatlarni qabul qilishga majburlanishi mumkin emas. Fuqarolik kodeksining 1147-moddasiga muvofiq, merosxo'r meros ochilgan kundan e'tiboran istalgan vaqtda merosdan voz kechishga haqli bo'lib, buni meros ochilgan joydagi notariusga ariza berish orqali amalga oshiradi.

Qonunchilik voz kechishning ikki turini farqlaydi:

**Mutlaq (shartsiz) voz kechish:** merosxo'r o'z ulushidan kimning foydasiga voz kechayotganini ko'rsatmaydi. Bu holda uning ulushi qonun yoki vasiyat bo'yicha chaqirilgan boshqa merosxo'rlar o'rtasida mutanosib ravishda taqsimlanadi.

**Yo'naltirilgan voz kechish:** qonun yoki vasiyat bo'yicha merosxo'rlar jumlasidan bo'lgan aniq shaxslar foydasiga amalga oshiriladi.

Fuqarolik kodeksining 1148-moddasi ushbu huquqni amalga oshirishga nisbatan qat'iy cheklovlar qo'yadi: merosdan shartlar qo'yib yoki o'zgarishlar bilan, yoxud ma'lum bir muddatga yoki qisman voz kechishga yo'l qo'yilmaydi (merosxo'r bir necha asoslar bo'yicha merosxo'rlikka chaqirilgan hollar bundan mustasno). Eng muhim barqarorlashtiruvchi element Fuqarolik kodeksining 1147-moddasi to'rtinchi qismida mustahkamlangan voz kechishning qaytarilmasligi prinsipidir: topshirilgan ariza keyinchalik merosxo'r tomonidan qaytarib olinishi yoki bekor qilinishi mumkin emas. Ushbu qoida boshqa ishtirokchilar uchun huquqiy aniqlikni kafolatlasa-da, iroda nuqsonlari (aldov, yanglishish, tahdid) mavjud bo'lgan hollarda ushbu qaytarilmaslik jiddiy adolatsizlikka olib kelishi mumkin, bu esa sud tartibida nizolashish mexanizmlarini joriy etishni talab qiladi.

O'zbekiston Respublikasi sud amaliyotini tahlil qilish merosdan voz kechish bilan bog'liq nizolarni bir nechta asosiy toifalarga ajratish imkonini beradi :

Jiddiy yanglishish yoki aldov ta'siri ostida qilingan voz kechish arizalarini haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi nizolar.

Merosxo'rning merosni amalga qabul qilganlik harakatlari bilan voz kechish arizasi taqdim etilgunga qadar mulkni vaqtincha saqlab turish harakatlari o'rtasidagi farqni aniqlash bilan bog'liq ziddiyatlar.

Merosxo'rlarning uchinchi shaxslar (kreditorlar) oldidagi majburiyatlarini bajarmaslik maqsadida o'z huquqlarini suiiste'mol qilishi bilan bog'liq nizolar.

Ayniqsa, qarzdorlar tomonidan kreditorlar oldidagi majburiyatlarni bajarmaslik maqsadida merosdan qasddan voz kechish orqali o'z mulkiy ahvolini yomonlashtirish muammosi alohida e'tiborga loyiqdir. Ushbu holatni quyidagi keys misolida ko'rib chiqish mumkin :

Fuqaro A. vafot etganidan so'ng, bozor qiymati 500 million so'm bo'lgan uy-joy meros bo'lib qoldi. Birinchi navbatdagi yagona merosxo'r bo'lgan uning o'g'li — fuqaro B.ning tijorat banki (kreditor) oldida 400 million so'm miqdorida muddati o'tgan qarzi bor edi. Agar u merosni qabul qilsa, ushbu uy-joy sud ijrochilari tomonidan qarz hisobiga xatlanishini anglagan holda, fuqaro B. notariusga borib, o'z ulushidan o'g'li (marhum'ning nabirasi) foydasiga voz kechish to'g'risida ariza topshirdi. Natijada kreditor o'z talablarini ushbu meros mulki hisobidan qondirish imkoniyatidan mahrum bo'ldi, mulk esa amalga o'sha oilaning ixtiyorida qoldi.

Amaldagi O'zbekiston qonunchiligi doirasida kreditorlar bunday sxemalarga qarshi kurashish uchun samarali protsessual vositalarga ega emaslar. Garchi Fuqarolik kodeksining 9-moddasi fuqarolik huquqlarini boshqa shaxslarga zarar yetkazish maqsadida suiiste'mol qilishni taqiqlasa-da, umumyurisdiksiya sudlari bunday notarial harakatlarni haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi da'volarni maxsus moddiy-huquqiy mexanizm yo'qligi sababli rad etishadi. Ushbu bo'shliq moliya-bank tizimining barqarorligiga putur yetkazadi va xorijiy tajribani joriy etishni taqozo etadi.

AQShda meros huquqi asosan shtatlar darajasida Yagona vorislik kodeksi (Uniform Probate Code – UPC) kabilar asosida tartibga solinadi. AQShda mulk huquqining o'tishi kontinental Yevropa modelidan tubdan farq qiladi. Mulkning merosxo'rlarga o'tishi maxsus "Probate" (vasiyatnomani tasdiqlash va mulkni boshqarish) jarayoni orqali amalga oshiriladi :

Meros massasi (Estate) o'z huquq va majburiyatlariga ega bo'lgan avtonom yuridik subekt sifatida tan olinadi.

Sud tomonidan shaxsiy vakil (Personal Representative yoki Executor) tayinlanadi, u marhumning barcha aktivlarini yig'adi, baholaydi va ushbu aktivlar hisobidan meros qoldiruvchining barcha qarzlarni to'laydi.

Merosxo'rlar barcha qarzlarni va majburiyatlarni to'langandan keyin qolgan sof mulkni (Net Estate) qabul qilib oladilar. Shuning uchun ular meros qoldiruvchining qarzlari uchun shaxsan javobgar bo'lmaydilar.

AQShda merosdan voz kechish (Disclaimer) instituti soliq huquqi bilan chambarchas bog'liqdir. Voz kechish haqiqiy deb tan olinishi va uni keyingi vorisga o'tkazishda sovg'a solig'i (Gift Tax) kabi ikki karra soliqqa tortilmasligi uchun, u AQSh Ichki daromadlar kodeksining (Internal Revenue Code – IRC) 2518-bo'limiga muvofiq "Malakali voz kechish" (Qualified Disclaimer) talablariga javob berishi kerak.

Buning uchun quyidagi to'rtta shart bir vaqtda bajarilishi shart :

Voz kechish aniq yozma shaklda rasmiylashtirilishi lozim.

Arizani shaxsiy vakilga yoki mulk huquqini ushlab turgan shaxsga meros huquqi vujudga kelgan kundan boshlab 9 oy ichida topshirish shart.

"Foydalarni qabul qilish" (Acceptance of Benefits) holati mavjud bo'lmasligi kerak, ya'ni merosxo'r voz kechishdan oldin mulkdan foydalanmagan, undan daromad (ijara haqi, foizlar) olmagan bo'lishi shart.

Mulk voz kechayotgan shaxsning hech qanday ko'rsatmasisiz (direction) qonun yoki vasiyat bo'yicha keyingi vorisga avtomatik tarzda o'tishi kerak.

AQSh huquqida merosni qabul qilish va undan voz kechishning soliq hamda ijtimoiy oqibatlari quyidagi tizimli tahlil orqali ifodalanadi :

**Merosni qabul qilishning soliq va ijtimoiy oqibatlari:** Merosni qabul qilgan taqdirda merosxo'r federal va shtat darajasidagi meros solig'iga (Estate Tax) tortilishi mumkin. Agar mulk avval bolaga, keyin nabiraga o'tsa, u ikki marta soliqqa tortiladi. Shuning sootidan tashqari, merosxo'rning aktivlari ortishi uning davlat ijtimoiy yordam dasturlarida (masalan, Medicaid) ishtirok etish huquqini yo'qotishiga olib kelishi mumkin.

**Merosdan voz kechishning soliq va ijtimoiy oqibatlari:** Malakali voz kechish amalga oshirilganda, soliq yuki oraliq merosxo'rni chetlab o'tib, to'g'ridan-to'g'ri yakuniy benefitsiarga o'tadi va ikki karra soliq to'lashning oldi olinadi. Mulk bolani "sakrab o'tib", to'g'ridan-to'g'ri

nabiraga o'tadi va soliq faqat bir marta undiriladi. Bundan tashqari, aktivlardan voz kechish merosxo'rga kam ta'minlanganlik mezonini saqlab qolgan holda davlat ijtimoiy yordam dasturlarida ishtirok etishda davom etish imkonini beradi.

Turkiya Fuqarolik kodeksi (Türk Medeni Kanunu – TMK) merosxo'rlarni meros qoldiruvchining qarzlardan himoya qilishni batafsil tartibga soladi. O'zbekiston qonunchiligining passiv pozitsiyasidan farqli o'laroq, turkiya huquqi "Hukman Red" (Hukm bilan yoki qonuniy voz kechish) doktrinasini taklif etadi.

TMKning 605/2-moddasiga ko'ra, agar meros qoldiruvchining vafoti vaqtida uning to'lovga qobiliyatsizligi (qarzlari aktivlaridan ko'pligi) ochiq-oydin ma'lum bo'lsa (açıkça belli) yoki rasmiy davlat organlari tomonidan tasdiqlangan bo'lsa, merosxo'rlar tomonidan hech qanday ariza topshirilmagan taqdirda ham meros avtomatik ravishda rad etilgan hisoblanadi. To'lovga qobiliyatsizlikni isbotlash merosxo'rlar zimmasiga yuklanadi va buni har qanday dalillar (ijra hujjatlari, soliq hisobotlari, guvohlar ko'rsatmalari) yordamida Sulh yoki Asliye Hukuk sudlarida amalga oshirish mumkin.

Shuningdek, TMKning 617-moddasi kreditorlarni himoya qiladi: agar shaxsiy qarzlari bor bo'lgan merosxo'r o'z kreditorlariga zarar yetkazish maqsadida to'lovga qobiliyatli merosdan voz kechsa, kreditorlar ushbu voz kechishni 6 oy ichida sud tartibida bekor qilishni talab qilishga haqlidirlar (agar merosxo'r ularga tegishli kafolat taqdim etmasa).

Rossiya Federatsiyasi (RF GK 1157–1160-moddalari) va Qozog'iston Respublikasi (QR GK 1074–1076-moddalari) fuqarolik qonunchiligi merosdan voz kechish uchun 6 oylik muddatni saqlab qolgan. Rossiya tartibga solish tizimining eng muhim afzalligi voyaga yetmagan va muomalaga layoqatsiz fuqarolar manfaatlarini himoya qilishning yuqori darajasidir. Ushbu toifadagi shaxslar nomidan merosdan voz kechishga faqat vasiylik va homiylik organlarining oldindan berilgan yozma ruxsati bilan yo'l qo'yiladi. Bu chora uysiz qolish xavfi bo'lgan zaif oila a'zolarini himoya qilishda deyarli barcha hollarda muhim rol o'ynaydi.

Germaniya fuqarolik qonuniga (Bürgerliches Gesetzbuch – BGB) ko'ra, Germaniyada merosni bevosita qo'lga kiritish (ipso iure) prinsipi amal qiladi. Meros vafot etgan lahzada merosxo'rlarga hech qanday ariza talab qilinmasdan avtomatik ravishda o'tadi. Merosdan voz kechish (Ausschlagung) jarayoni quyidagi xususiyatlarga ega :

Voz kechish uchun juda qisqa muddat — merosxo'r meros ochilganini va o'zining vorislik asosini bilgan kundan boshlab 6 hafta belgilangan. Agar meros qoldiruvchi chet elda yashagan bo'lsa yoki merosxo'r chet elda bo'lsa, bu muddat 6 oygacha uzaytiriladi.

Voz kechish meros sudi (Nachlassgericht) yoki notarius orqali amalga oshiriladi.

BGBning 1954–1957 paragraflariga binoan voz kechishni nizolashish (Anfechtung) imkoniyati mavjud. Agar merosxo'r yanglishish ta'sirida (masalan, meros faqat qarzlardan iborat deb o'ylab, aslida unday bo'lmaganda) voz kechgan bo'lsa, u xatoni bilgan kundan boshlab 6 hafta ichida o'z arizasini sudda nizolashish huquqiga ega.

**Turkiya Respublikasi tizimining tavsifi:** Merosdan voz kechish muddati 3 oyni tashkil etadi. Vakolatli organ — Sulh Hukuk (Miraviy) sudidir. To'lovga qobiliyatsizlik holatida avtomatik voz kechish ("Hukman Red") tizimi mavjud. Kreditorlar voz kechish sodir bo'lgan kundan boshlab 6 oy ichida uni sudda nizolashish huquqiga ega. Voyaga yetmaganlarning huquqlari vasiylik sudlarining nazorati bilan himoyalanaadi.

**AQSh tizimining tavsifi:** Merosdan voz kechish muddati 9 oyni tashkil etadi. Vakolatli organ — Probate Court (Meros sudi) hisoblanadi. Avtomatik voz kechish mavjud emas, lekin

barcha qarzlarni merosxo'rga yetib borguncha Estate (meros massasi) tomonidan to'lanadi. Kreditorlardan qochish maqsadidagi voz kechishlar ko'plab shtatlarda taqiqlangan va sud orqali bekor qilinadi. Voyaga yetmaganlarning manfaatlari sud tomonidan tayinlangan vasiy tomonidan himoya qilinadi.

**Germaniya Federativ Respublikasi tizimining tavsifi:** Merosdan voz kechish muddati 6 haftani tashkil etadi. Vakolatli organ — Nachlassgericht (Meros sudi). Avtomatik voz kechish mavjud emas. Kreditorlar huquqlari to'lovga qobiliyatsizlik (bankrotlik) tartib-taomillari orqali amalga oshiriladi. Voyaga yetmaganlarning huquqlari sud nazorati ostida bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolik qonunchiligini modernizatsiya qilish bo'yicha taklif etilayotgan mazkur chora-tadbirlar majmui fuqarolik muomalasi barqarorligini ta'minlash, merosxo'rlarning mulkiy manfaatlarini himoya qilish hamda zamonaviy raqamli iqtisodiyot talablariga moslashishni ko'zda tutadi. Ushbu islohotlar meros huquqi sohasidagi ijtimoiy adolatni kuchaytirishga va merosxo'rlar hamda kreditorlar o'rtasidagi huquqiy munosabatlarni shaffoflashtirishga xizmat qiladi.

Merosxo'rlarni vafot etgan shaxsning asossiz qarz yukidan himoya qilish tizimi merosni inventar ro'yxati asosida qabul qilish va to'lovga qobiliyatsiz merosdan avtomatik voz kechish institutlari orqali ta'minlanadi. Bu mexanizmlar merosxo'rning shaxsiy mol-mulkini qarzlarni hisobidan yo'qotish xavfini bartaraf etadi, ayniqsa meros qoldiruvchining aktivlari passivlaridan kam bo'lgan hollarda himoya funksiyasini bajaradi. Shu bilan birga, kreditorlarning manfaatlarini himoya qilish uchun qarzdor merosxo'rlar tomonidan o'z majburiyatlaridan qochish maqsadida merosdan voz kechish holatlariga qarshi huquqiy to'siqlar joriy etilmoqda, ya'ni kreditorlarga bunday voz kechishni sud orqali nizolashish huquqi berilmoqda. Mazkur balans, ya'ni bir tomondan merosxo'rni ortiqcha qarz yukidan himoya qilish, ikkinchi tomondan kreditorlarning mulkiy huquqlarini ta'minlash, huquqiy tizimdagi muvozanatni saqlashga qaratilgan.

Huquqiy tartibga solishning samaradorligini oshirish maqsadida protsessual jihatlar va zamonaviy talablar ham hisobga olingan. Xalqaro mehnat migratsiyasining kengayishini inobatga olgan holda, merosni qabul qilish muddatlari tabaqalashtirilmoqda va shaxsning haqiqiy xabardorligiga asoslangan moslashuvchan yondashuv tatbiq etilmoqda. Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyot davrida meros tarkibi tushunchasi kengaytirilib, kriptovalyutalar va virtual aktivlar kabi "raqamli meros" obyektlari qonuniy maqomga ega bo'lmoqda. Nihoyat, vasiylik ostidagi shaxslarning mulkiy huquqlarini himoya qilish uchun sud nazorati kuchaytirilmoqda hamda merosdan voz kechish jarayonida "Huquqiy oqibatlar bayonnomasi" (HOP) orqali fuqarolarning xabardorligini oshirish va kelgusidagi sud nizolarini qisqartirish ko'zda tutilmoqda. Bu yondashuvlar yaxlitlikda fuqarolik huquqini yanada zamonaviy, adolatli va himoyalangan tizimga aylantirishga yo'naltirilgan.

Taklif etayotgan mazkur islohotlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi meros huquqi tizimini zamonaviy iqtisodiy va ijtimoiy talablar asosida qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi. Xususan, notariat tizimini raqamlashtirish va "E-notarius" tizimini kengaytirish orqali meros bilan bog'liq harakatlarni masofadan, ikki faktorli biometrik identifikatsiya (Face-ID) vositasida amalga oshirish imkoniyatini yaratish, shuningdek, barcha notarial idoralarni Yagona meros ishlari reyestriga ulash, protsessual shaffoflikni va qarama-qarshi arizalar topshirilishining oldini olishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur tizimli o'zgarishlarning xalqaro tajribaga asoslangan qiyosiy tahlili quyidagilardan iborat:

**Merosni inventar ro'yxati asosida qabul qilish:** Germaniya (BGB) va Yaponiya tajribasiga tayanib, Fuqarolik kodeksining 1153-1-moddasi loyihasini kiritish orqali merosxo'rning javobgarligini faqat meros qoldirilgan mol-mulk qiymati doirasida cheklash taklif etiladi. Bu merosxo'rning shaxsiy mulkini saqlab qolish va uy-joydan asossiz voz kechish holatlarini kamaytirishga xizmat qiladi.

**To'lovga qobiliyatsiz merosdan avtomatik voz kechish:** Turkiya qonunchiligi (TMK 605/2) andoza sifatida tanlanib, Fuqarolik kodeksiga 1147-1-moddani joriy etish nazarda tutiladi. Merosning qarz yuki uning aktivlaridan oshib ketgan hollarda "Hukman Red" (avtomatik voz kechish) tizimini qo'llash fuqarolarni oldindan ko'ra bilmaslik oqibatidagi qarz yukidan himoya qiladi va ma'muriy yukni yengillashtiradi.

**Raqamli aktivlarning huquqiy maqomi:** AQSh va Xitoy tajribasiga tayanib, Fuqarolik kodeksining 1119-moddasini raqamli aktivlar (kriptoalyutalar, virtual tokenlar, onlayn-biznes) bilan to'ldirish qonunchilikni raqamli iqtisodiyot talablariga moslashtirishning zaruriy bosqichidir.

**Zaif qatlamlarni himoya qilish:** Rossiya Federatsiyasi amaliyotiga muvofiq, muomalaga layoqatsiz yoki cheklangan shaxslar nomidan vasiylik organlarining roziligisiz amalga oshirilgan voz kechishlarni qonuniy kuchga ega emas deb topish, yetim bolalar va nogiron shaxslarning uy-joy hamda mulkiy huquqlarini ishonchli himoya qiladi.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, an'anaviy universal vorislik konsepsiyasini mutlaq qabul qilish yoki to'liq voz kechish kabi qat'iy chegaralardan chiqarib, zamonaviy va muvozanatli mexanizmlar bilan boyitish ijtimoiy adolat hamda iqtisodiy samaradorlikni ta'minlashning yagona yo'lidir. Taklif etilgan mazkur islohotlar nafaqat fuqarolarning mulkiy kafolatlarini kuchaytiradi, balki mamlakatimizning xalqaro miqyosdagi qonun ustuvorligi reytingidagi mavqeini mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (Ikkinchi qism) // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. – 1996 y..
2. Rossiya Federatsiyasining Fuqarolik kodeksi (Uchinchi qism) 26.11.2001 yildagi № 146-FZ // Rossiya Federatsiyasi Qonunchilik to'plami. – 2001 y..
3. O'zbekiston Respublikasining "Notariat to'g'risida"gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. – 1997 y..
4. AQSh Ichki daromadlar kodeksi (Internal Revenue Code, 26 U.S.C. § 2518 - Disclaimers).
5. Turkiya Fuqarolik kodeksi (Türk Medeni Kanunu) 22.11.2001 yildagi № 4721 // Turkiya Respublikasi Rasmiy Gazetasi. – 2001 y..
6. Germaniya Fuqarolik qonuni (Bürgerliches Gesetzbuch – BGB) 18.08.1896 yildagi // Germaniya Federativ Respublikasi Qonunchiligi.
7. Hakimov N. O'zbekiston Respublikasi fuqarolik huquqida merosni qabul qilish va undan voz kechish masalalari: yurid. fan. nomz.... dis. – Toshkent: TDYU, 2019. – 156 b..
8. Umarov B. Meros ishlari bo'yicha sud amaliyoti. – Toshkent: Adolat, 2021. – 224 b..
9. Harris R., Brierley A. The Law of Succession. – London: Sweet & Maxwell, 2016. – 612 p..
10. AQSh Yagona vorislik kodeksi (Uniform Probate Code – UPC). – Uniform Law Commission, 2019.